"BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KREATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK MODELI"

Safarova Madina Azamat qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti
3-bosqich doktoranti

ANNOTATSIYA Zamonaviy ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri — ijodkor, mustaqil fikrlovchi, innovatsion faoliyatga tayyor bo'lgan pedagoglarni tayyorlashdan iborat. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida faoliyat yurituvchi o'qituvchilarning kreativ kompetensiyasi yuqori darajada shakllangan bo'lishi zarur, chunki aynan ushbu bosqichda o'quvchilarning ijodiy tafakkuri va bilish faoliyatining asoslari shakllanadi [1].

Xorijiy va mahalliy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining kreativ kompetensiyasi uning kasbiy muvaffaqiyatining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Shu bois, bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan didaktik modelni ishlab chiqish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi [7].

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida e'tirof etilgan yondashuvlar majmui tashkil etadi. Xususan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini ilmiy asoslashda tizimli-faoliyatli, kompetensiyaviy, muhitli hamda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar kompleks tarzda qo'llanildi. Ushbu yondashuvlar o'zaro integratsiyalashgan holda ta'lim jarayonining mazmuni, shakllari va metodlarini aniqlashga xizmat qildi [3].

Tizimli-faoliyatli yondashuv tadqiqotning yetakchi metodologik asoslaridan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuvga ko'ra, ta'lim jarayoni o'zaro bog'liq komponentlardan iborat yaxlit tizim sifatida qaraladi hamda bilimlarni egallash faoliyat jarayonida amalga oshiriladi. Ushbu yondashuv doirasida o'qitish jarayonida talabaning faol subyekt sifatidagi ishtiroki ta'minlanadi, ya'ni u bilimni tayyor shaklda qabul qiluvchi emas, balki uni mustaqil ravishda egallovchi va amaliyotda qo'llovchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi [6].

Kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy ta'lim tizimining asosiy paradigmasi sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv bo'lajak o'qituvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni bir butun tizim sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan. Tadqiqotda kreativ kompetensiya o'qituvchining kasbiy faoliyatida samarali natijalarga erishishini ta'minlovchi integrativ sifat sifatida talqin etiladi [5].

Muhitli yondashuv ta'lim jarayonini tashkil etishda muhitning rolini asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, shaxsning rivojlanishi bevosita u faoliyat yuritayotgan ijtimoiy, madaniy va axborot muhitiga bog'liqdir. Tadqiqotda oliy ta'lim muassasasining Raqmli ta'lim muhiti kreativ kompetensiyani rivojlantirishning muhim resursi sifatida qaraladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv ta’lim jarayonini individuallashtirishga asoslanadi va har bir talabaning shaxsiy xususiyatlari, ehtiyojlari hamda qiziqishlarini inobatga olishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv doirasida talaba ta’lim jarayonining markaziy subyekti sifatida qaraladi.

Tadqiqot natijalari asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan didaktik model ishlab chiqildi. Mazkur model Raqmli ta’lim muhiti sharoitida ta’lim jarayonini tizimli tashkil etishga xizmat qiluvchi integral tuzilma sifatida shakllantirildi va u to‘rtta o‘zaro bog‘liq blokdan iborat.

Maqsadli blok zamonaviy ta’lim tizimining ijtimoiy buyurtmasiga asoslanib, kreativ o‘qituvchini tayyorlashga yo‘naltirilgan strategik yo‘nalishni belgilaydi. Ushbu blokda kreativ kompetensiyani shakllantirishning asosiy maqsadi – bo‘lajak o‘qituvchilarda ijodiy fikrlash, innovatsion yondashuv va pedagogik muammolarni original yechish qobiliyatini rivojlantirish sifatida aniqlanadi. Shuningdek, mazkur blok modelning umumiy maqsadidan kelib chiqadigan vazifalarni tizimli ravishda belgilaydi.

Metodologik blok tadqiqotning nazariy asosini tashkil etib, ilgari asoslangan to‘rtta yondashuv — tizimli-faoliyatli, kompetensiyaviy, muhitli va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarning integratsiyasiga tayanadi. Ushbu blok doirasida quyidagi didaktik tamoyillar asosiy yo‘nalish sifatida belgilangan: ta’lim jarayonining tizimliligi; faoliyatga yo‘naltirilganlik; nazariya va amaliyotning uzviyligi; ta’lim muhitining moslashuvchanligi; kreativlikni uzluksiz rivojlantirish.

Mazkur tamoyillar modelning ilmiy asoslanganligini ta’minlab, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mazmuniy blok didaktik modelning amaliy-pedagogik mazmunini ifodalaydi va quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi: o‘quv mazmuni va materiallar tizimi; zamonaviy pedagogik texnologiyalar; ta’limni tashkil etish shakllari; Raqmli ta’lim resurslari.

Ushbu blokda kreativ kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion pedagogik texnologiyalar tizimli ravishda qo‘llaniladi. Xususan: evristik metodlar; storytelling texnologiyasi; кейс (case-study) texnologiyasi; o‘yin texnologiyalari; trening texnologiyalari; loyihaviy va modellashtirish faoliyati; TRIZ (ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi) metodlari; VR (virtual reallik) texnologiyalari.

Mazkur texnologiyalar bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy tafakkuri, muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati va innovatsion faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Baholash-refleksiv blok kreativ kompetensiyaning shakllanish darajasini aniqlash va tahlil qilishga yo‘naltirilgan. Tadqiqotda uch darajali mezon asosida baholash tizimi ishlab chiqildi:

kreativ-reproduktiv daraja – tayyor bilim va usullarni takrorlashga asoslangan past daraja;

kreativ-produktiv daraja – mavjud bilimlarni yangi sharoitda qo‘llash va qisman ijodiy yondashuv;

kreativ-innovatsion daraja – mustaqil innovatsion g‘oyalar yaratish va pedagogik faoliyatni yangilash qobiliyati.

Diagnostika jarayonida testlar, so‘rovnomalar va pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish metodlari qo‘llanildi. Bu esa kreativ kompetensiyaning rivojlanish dinamikasini aniq baholash imkonini berdi.

Olingan natijalar ishlab chiqilgan didaktik modelning samaradorligini tasdiqlaydi. Modelning blokli tuzilishi kreativ kompetensiyani bosqichma-bosqich rivojlantirishni ta’minlab, ta’lim jarayonini tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan holda tashkil etishga imkon beradi. Ayniqsa, Raqmli ta’lim muhiti va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning integratsiyasi bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ fikrlash, innovatsion yondashuv va kasbiy moslashuvchanlikni rivojlantirishda muhim omil ekanligi aniqlandi [3.5].

Mazkur dastur bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, u uzluksiz va bosqichma-bosqich shakllantirish tamoyiliga asoslanadi. Dastur quyidagi asosiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Nazariy bosqichda talabalar kreativ pedagogika asoslari, kreativ fikrlashni rivojlantirish metodlari hamda kreativ o‘qituvchi modelining nazariy jihatlarini o‘rganadilar. Shuningdek, zamonaviy ta’lim jarayonida kreativ yondashuvning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi.

2. Analitik-amaliy bosqichda olingan nazariy bilimlar amaliy mashg‘ulotlar orqali mustahkamlanadi. Talabalar pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, muammoli holatlarni hal etish va innovatsion o‘qitish usullarini qo‘llash bo‘yicha ko‘nikmalarni rivojlantiradilar.

3. Ijodiy bosqichda talabalar mustaqil ravishda kreativ ta’lim loyihalarini ishlab chiqadilar. Bu jarayonda ular o‘z pedagogik g‘oyalarini amaliy jihatdan asoslash, innovatsion yondashuvlarni qo‘llash hamda original ta’lim mahsulotlarini yaratish ko‘nikmalarini namoyon etadilar.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, “Kreativ o‘qituvchi” dasturini qo‘llash jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyasida ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Xususan:

- talabalarning kreativ fikrlash darajasi sezilarli darajada oshdi;
- pedagogik muammoli vaziyatlarga nisbatan innovatsion yondashuv shakllandi;
- ta’lim jarayonida mustaqillik, tashabbuskorlik va mas’uliyat hissi rivojlandi;
- o‘quv faoliyatiga bo‘lgan ichki motivatsiya darajasi sezilarli ravishda kuchaydi.

Umuman olganda, olingan natijalar ishlab chiqilgan dastur bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita ekanligini tasdiqlaydi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini ilmiy-metodik asoslash imkonini berdi. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan didaktik model va “Kreativ o‘qituvchi” dasturining samaradorligi nazariy va amaliy jihatdan asoslab berildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Raqmli ta’lim muhiti bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim didaktik omil bo‘lib, u interfaollik, mustaqil ta’lim va innovatsion yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ishlab chiqilgan didaktik model tizimli yondashuvga asoslangan bo‘lib, kreativ kompetensiyani bosqichma-bosqich va uzviy rivojlantirish imkonini beradi. Modelning to‘rt blokli tuzilmasi — maqsadli, metodologik, mazmuniy va baholash-refleksiv bloklar — ta’lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etishga xizmat qiladi.

“Kreativ o‘qituvchi” dasturi esa kreativ kompetensiyaning kognitiv, faoliyatga yo‘naltirilgan va refleksiv komponentlarini kompleks rivojlantirishga imkon yaratadi. Dastur bosqichlari (nazariy, analitik-amaliy va ijodiy) o‘quvchilarda ijodiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish hamda innovatsion pedagogik faoliyatni shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari zamonaviy pedagogik texnologiyalar (evristik metodlar, case-study, TRIZ, VR va boshqalar) kreativ fikrlashni rivojlantirishda samarali vosita ekanligini tasdiqladi. Umuman olganda, olingan natijalar ishlab chiqilgan didaktik model va “Kreativ o‘qituvchi” dasturi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyasini rivojlantirishda samarali ilmiy-amaliy tizim ekanligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Об утверждении и введении в действие Федерального государственного образовательного стандарта Начального общего образования. Приказ Министерства образования и науки РФ от 06.10.2009. № 373 (ред. от 11.12.2020) – URL: https://fgos.ru/fgos/fgos-noo/ (дата обращения: 20.01.2021).
2. Агапов, В. С. Креативное развитие профессионального я будущего специалиста / В. С. Агапов // Вестник Оренбургского государственного университета. – 2011. – №. 2 (121). – С. 257-261.
3. Асмолов, А. Г. Системно-деятельностный подход к разработке стандартов нового поколения / А. Г. Асмолов // Педагогика. – 2009. – №4. –С. 18-22.
4. Барышева, Т. А. Креативность. Диагностика и развитие: монография / Т. А. Барышева. – СПб.: изд-во РГПУ им. А. И. Герцена, –2002. – 205 с.
5. Ваганова, О. И. Системно-деятельностный подход в развитии профессионально-педагогического образования / О. И. Ваганова, О. Е. Ермакова // Вестник Мининского университета, – №. 4 (8). – 2014. – URL: https://www.minin-vestnik.ru/jour/article/view/546/522 (дата обращения:
6. 04.06.2020).
7. Дахин, А. Н. Моделирование в педагогике / А. Н. Дахин // Идеи и идеалы. – 2010. – Т. 2. – №. 1. – С. 11-20.